



ZAMONAVIY IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMDA YOSHLAR BANDLIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY JIHATLARI

Tagaev Bexzad Anvarovich
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Annotatsiya. Aholi bandligi ko'rsatkichi mehnat bozorining eng muhim tavsiflovchi jihatlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy ko'rsatkich sifatida ish haqidagi qoniqish darajasi, ishchi-xodimlar soni, mehnat faoliyatiga qo'shilish darajasi, shaxsiy ehtiyojlar va boshqalarni aks ettiradi. Shu jihatdan olganda, mehnat bozorining o'ziga xos "qaynoq" segmenti hisoblanuvchi yoshlar bandligini ta'minlash masalalarini o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, yoshlar, yosh mutaxassis, inson kapitali, aholi daromadlari, kambag'allik, turmush sifati va darajasi, mehnat bozori, iqtisodiy faol aholi, ishsizlik, iqtisodiy faollik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗАНЯТОСТЬЮ МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Тагаев Бехзад Анварович
Высшей школы бизнеса и предпринимательства

Аннотация. Показатель занятости населения является одним из важнейших описательных аспектов рынка труда, который, как экономический показатель, отражает уровень удовлетворенности заработной платой, численность работников, уровень вовлеченности в трудовую деятельность, личные потребности и т.д. В связи с этим одной из актуальных задач является изучение вопросов обеспечения занятости молодежи, которая считается своего рода "горячим" сегментом рынка труда.

Ключевые слова: занятость населения, молодежь, молодой специалист, человеческий капитал, доходы населения, бедность, качество и уровень жизни, рынок труда, экономически активное население, безработица, экономическая активность.

THEORETICAL ASPECTS OF YOUTH EMPLOYMENT MANAGEMENT IN THE MODERN SOCIO-ECONOMIC SYSTEM

Tagaev Behzad Anvarovich
Higher School of Business and Entrepreneurship

Annotation. The employment indicator of the population is one of the most important descriptive aspects of the labor market, which, as an economic indicator, reflects the level of satisfaction with wages, the number of employees, the level of involvement in labor activity, personal needs, etc. In this regard, one of the urgent tasks is to study the issues of youth employment, which is considered a kind of "hot" segment of the labor market.

Keywords: employment of the population, youth, young specialist, human capital, income of the population, poverty, quality and standard of living, labor market, economically active population, unemployment, economic activity.

Kirish.

Iqtisodiy nazariya inson kapitali rivojlanishini boshqarish asosida mehnat bozorini tavsiflovchi bir qator tushunchalarni izohlaydi. Mehnat bozorini o'rganish bilan shug'ullanuvchi barcha iqtisodiy maktab va yo'nalishlarni universal deb atab bo'lmaydi, shu bilan bir qatorda, ularning har qanday vaqt va har qanday davlat sharoitida birdek qo'llab bo'lmaydi. Har bir nazariyaning markazida muayyan bir nazariy qarashlar yotadi. Shu tariqa, iqtisodiyot nuqtai nazaridan marksizm g'oyalari tadbirkorlar va yollanma xodimlar o'rtasidagi tengsizlikning ustunligi bilan tavsiflansa; neoklassik nazariya mehnat bozorida harakat qiluvchi ishtirokchilar o'rtasidagi bozor munosabatlari tabiatining muhimligini ta'kidlaydi; keynschilik mehnat bozorini tartibga solishning alohida ahamiyatini ta'kidlaydi; institutsionalizm esa mehnat bozori an'analari, ushbu sohadagi qonunchilikni mustahkamlash va umumiy qoidalarni o'rnatish orqali mehnat bozorini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar sharhi.

Hududiy mehnat bozorining (viloyat, tuman va shahar) shakllanishiga turli omil va shart-sharoitlar ta'sir qiladi. Ushbu omil va shart-sharoitlar O'zbekiston mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Bandlik va umumiy holatda mehnat bozori uzoq vaqtlardan buyon, qator olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida alohida o'rin egallab keladi. Keng ma'noda, mehnat bozori mehnatdan foydalanishga bo'lgan talab va uni ma'lum bir narxda etkazib berish bilan belgilanadigan almashinuvni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy normalar va institutlar tizimi yoki umumiy ma'noda mehnatni yollash va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmui tarzida ifodalanishi mumkin. Akademik Abduraxmonovning (2019) fikricha, "mehnat resurslarini taqsimlaydigan va ish bilan bandlik borasida qarorlar qabul qiladigan bozor mehnat bozori" deb ataladi.


Shu nuqtayi nazardan, muhim xususiyatlarini o'rganishga tizimli yondashuvdan foydalangan holda, bandlikka to'laqonli ta'rif berishimiz mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida aholini ish bilan ta'minlash va umuman mehnat bozori iqtisodiyot sohasining ko'zga ko'ringan olimlarining qarashlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonda mehnat bozorining samarali rivojlanishi va ishsizlikni kamaytirish Abdurahmonov (2019) (mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan yoshlarni ish bilan ta'minlash), Xolmo'minov (2014) va Xomitov (2012) (qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi), Xudoyberdiyev (2016) (tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi), Xolmuxamedov (2011) (mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish), Nasimov (2011) (oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish) va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bunday tizim xodim sifatida ham, shaxs sifatida maydonga chiquvchi insonning ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning mehnat bozorini tartibga solishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, yoshlar bandligin ta'minlash bo'yicha qabul qilingan hukumat dasturlari va yo'l xaritalari tashkil qiladi. Tadqiqot ishining uslubiyoti sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish bog'liq bo'lgan munosabatlarni tizimli-funktsonal va dialektik o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilishda namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Olimlarning fikricha, O'zbekistonda mehnat bozorini o'rganish borasida asosiy uslubiy yondashuvlar shakllanib ulgurgan. Mahalliy olimlar hodisaning mohiyatiga qiziqish bildirgan holda, statistik kuzatuvlar uslubiyoti, bandlik tendentsiyalari va ishsizlik sabablarini tahlil qilish, rivojlanish dasturlarini tayyorlash va mehnat bozoridagi vaziyatni prognoz qilishga, shuningdek hisob-kitoblarning aniqligiga alohida e'tibor berishadi, bu esa o'z navbatida mehnat bozori haqidagi tushunchalar tizimini shakllantirish va shu asnda ilmiy ishlarda o'z aksini topadi.



1-rasm. O'zbekiston mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, ming kishi³²

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda iqtisodiy faol aholi 2010 yilga nisbatan 2022 yilda 2752,3 ming nafarga yoki 22,4 foizga ko'paygan bo'lsa, o'z navbatida ish bilan band aholi soni ham tahlil qilinayotgan davrda 2078,0 ming nafarga yoki 18,0 foizga oshgan. Shu bilan bir qatorda, 2022 yilda davlat sektorida band bo'lganlar soni 2540,0 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, nodavlat sektorida band bo'lganlar soni 11166,2 ming nafarni tashkil qilgan, bu o'z navbatida mehnat bozorida nodavlat, xususan xususiy sektorning ulushi ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Ilmiy adabiyotlarda mehnat bozori turli segmentlarga ajratiladi, masalan: korxonaning (tashqi va ichki) mehnat bozori; mehnat bozorini ma'muriy-hududiy belgisiga qarab ajratish (milliy yoki mamlakat mehnat bozori, hududlar, xususan viloyat, tuman mehnat bozorlari va boshqalar.); mehnat bozorining xalqaro ko'rinishlari (Rossiya, Evropa, Amerika, Osiyo va boshqalar); muayyan vaqt oraliqlari bo'yicha mehnat bozorlarini ajratish (prognoz, potentsial, joriy, istiqbolli va hokazo) (Abduraxmonov, 2019).

O'z navbatida, xizmatlarning har bir turi va sifati uchun alohida bozorlar mavjud, ya'ni mehnat bozori nogironlarning mehnat bozori, ayollar mehnat bozori, yoshlar mehnat bozori, shifokorlarning mehnat bozori va shu kabi bir qator segmentlarni o'z ichiga oladi. Mehnat bozorlarining samaradorligi ko'p jihatdan aholining iqtisodiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

1-jadval ma'lumotlari Respublika hududlarida iqtisodiy faollik darajasi pasayish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rsatmoqda, bu o'z navbatida hududlarda yoshlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish masalalarini izchillik bilan hal etishni taqozo etadi.

Mazkur holatdan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, mehnatga bo'lgan talab uning taklifiga mutanosib ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, ular o'rtasidagi nisbat ish haqining shakllantiradi, mehnat talabi va taklifi o'rtasidagi nisbat asosida mehnat bozorida muvozanat qaror topadi. Ushbu tasdiqqa ko'ra, mehnat bozoridagi muammolar ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida muvozanat qaror topmagan vaziyatlarda yuzaga chiqadi. Aksariyat holatlarda, mehnat taklifi yoshlar ta'lim bosqichlarini tamomlaganlaridan so'ng, vujudga keladi, ular o'qishni tamomlab mehnat bozorida faol ish izlay boshlaydilar. Ish qidirish vaqtida olingan kasbga talabning yo'qligi yoki tajribali ish izlovchilarga nisbatan raqobatbardosh ustunliklarning yo'qligi yoshlar mehnat bandligini ta'minlashdagi jiddiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

1-jadval

Aholining iqtisodiy faollik darajasi³³

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Resp.	71,9	72,5	73,5	74,3	75,0	73,8	74,1	73,7
Qoraqalpog'iston Resp.	61,4	61,5	62,0	69,5	69,2	69,2	67,9	67,8
Andijon	75,7	76,6	77,7	77,0	77,2	74,7	75,7	76,5
Buxoro	77,7	77,1	76,7	77,4	76,2	76,4	74,5	73,7
Jizzax	61,3	62,4	63,1	68,3	74,0	74,3	75,1	73,0
Qashqadaryo	67,0	67,9	69,6	71,7	70,7	68,5	69,2	68,3
Navoiy	77,1	76,7	76,4	75,8	75,9	73,8	74,9	73,6
Namangan	63,8	65,4	67,3	70,5	73,2	72,7	72,6	71,2
Samarqand	71,6	72,9	74,6	73,4	72,1	70,9	70,7	71,4
Surxondaryo	68,0	69,3	71,3	72,2	74,0	71,9	71,8	70,8
Sirdaryo	75,9	75,0	74,9	77,7	76,1	72,8	71,9	70,6
Toshkent	78,5	78,6	79,4	78,5	78,5	76,2	79,8	77,9
Farg'ona	73,1	73,6	74,7	73,1	74,5	73,0	73,6	73,9
Xorazm	69,4	70,1	71,0	71,3	72,8	71,5	71,1	71,1
Toshkent sh.	84,3	84,1	84,6	84,1	86,9	88,8	87,4	88,3

Mamlakat iqtisodiyoti jahon xo'jaligi tizimiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgan bir sharoitda, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan global iqtisodiy rivojlanish, shu jumladan zamonaviy shart-sharoitlarda aholi, xususan yoshlar bandligini ta'minlash masalalari katta qiziqish bilan taqdiq qilinmoqda. 20-asrning oxirlari va yangi asrimiz boshlarida bu borada faollik yaqqol ko'zga tashlana boshladi, bu o'z navbatida sobiq ittifoq mamlakatlarining yangicha iqtisodiy taraqqiyot yo'liga o'tishlari bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchilar bandlik, xususan yoshlar bandligi muammolariga keng to'xtalgan holda, bandlik siyosati va ishsizlik muammolarini hal qilish-ning yangicha uslublarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydilar.

Ishsizlik iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ijtimoiy siyosat, ya'ni jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga salbiy ta'sir qiladi. Mazkur muammo mamlakatimizning barcha hududlari uchun ham birdek, dolzarb muammo hisoblanadi. Ishsizlik jamiyatning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishga ta'sir qiladi, ya'ni ishsizlik mavjud bo'lgan holatda jamiyatning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanilmaydi. Shuningdek, ishsizlik iste'mol talabiga ta'sir qiladi, jamg'armalarning kamayishiga, investitsiya talabining pasayishiga, taklifning qisqarishiga va natijada esa ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi.

Ma'lumotlar tahliliga tayanadigan bo'lsak, bugungi kunda O'zbekistonda mehnat va bandlik idoralaridan rasmiy ishsiz sifatida ro'yxatga olinganlar soni 2022 yilda 1337,2 ming nafarni tashkil etadi. Mamlakatimiz hududlarida eng yuqori ishsizlik darajasi Farg'ona viloyatida (153,9 ming nafar), Samarqand viloyatida (152,5 ming nafar), Qashqadaryo viloyatida (124,2 ming nafar), Andijon viloyatida (116,9 ming nafar) qayd qilingan bo'lsa-da, vaziyat boshqa viloyatlarda ham quvonarli emas.

Ta'lim va biznes sektori vakillari (ish beruvchilar) mintaqadagi ishsizlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ularning birinchi mehnat bozorida taklifni shakllantirsa, ikkinchisi esa, mos talabni vujudga keltiradi. Mintaqaning inson kapitalini shakllantirishda ularning o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega, chunki mahalliy hokimiyat, universitetlar va ish beruvchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan inson salohiyatini kapitalga aylantirish, shuningdek hududga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish mumkin.

Ma'lumki, davlat aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu mehnat bozorini tartibga solish zarurati bilan bog'liq, chunki hukumat faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy o'lchovga egaligi bilan ajralib turadi. Shundan kelib chiqqan holda, "O'zbekiston-2030" strategiyasida

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxonalar — oliygoh — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish kabi maqsad va vazifalar ko'zda tutilgan (Farmon, 2023).

Aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi vaziyatni tartibga solishning asosiy vositasi dasturlardir. Davlatning mehnat bozorini boshqarish bilan bog'liq barcha harakatlari mamlakat yoki mintaqa aholisining to'liq bandligini ta'minlashga, mehnat bozorining barqarorligi va mamlakatdagi va dunyodagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan.

Davlat bandlik siyosatining faol va passiv shakllari bir xil darajada dolzarb va muhimdir. Birinchi holda, iqtisodiy faol aholi ish bilan ta'minlanadi (ya'ni yangi bo'sh ish o'rinlarini yaratish), fuqarolarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ikkinchidan - muhojirlarga ishsizlik nafaqasini to'lash amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda turli mamlakatlar hukumati mehnat bozorini faol tartibga solish siyosatini amalga oshirish orqali to'liq bandlikka erishishni ustuvor maqsad qilib qo'yishgan.

Mehnatga bo'lgan talabning tuzilishi bozorning to'yinganligida namoyon bo'ladi va ommaviy xarakterdagi ishlab chiqarish masalalarini hal qiladi, shuning uchun u industrial jamiyatning o'lchamlariga mos keladi. Holbuki, masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari mehnat bozorida talabning tuzilishi biznes jarayonlarini sanoatlashtirish ustun bo'lgan post-industrial jamiyatga mos keladi.

Ma'lumki, dunyoning turli mamlakatlarida mehnat bozorining o'ziga xos modellari mavjud, bunga bir qator turli omillar, jumladan, iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy xususiyatlar va boshqalar ta'sir qiladi. Aholini ish bilan ta'minlashni tartibga solishning faol davlat siyosati ishsizlik darajasining pasayishiga, korxonalarini ishchilarni yollashga rag'batlantirishga, shuningdek, aholining o'z bilim darajasi, ish tajribasi, kasbiy mahoratini oshirishga undaydi (Abduraxmonov, 2019).

Mehnat resurslarini tartibga solishning mahalliy tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan uzoq vaqt davomida aholining mehnat faoliyatidagi ishtirokini tartibga solishning turli usullari qo'llab kelingan.

Ko'pgina tadqiqotchilarning asarlarida bandlik segmentatsiyasi tushunchasiga duch kelamiz, ayni chog'da umumiy ma'noda, segment alohida ishchi kuchi guruhlarini tarmoqlar bo'yicha farqlashni anglatadi, bu esa o'z navbatida ushbu guruhlarining harakatchanligini cheklaydi. Guruhlarni ish joylari yoki xodimlar bo'yicha farqlashimiz mumkin.

Statistik ma'lumotlar bandlikni tahlil qilishda katta rol o'ynaydi, ular mehnat munosabatlarining iqtisodiy tarkibiy qismi va ta'lim muassasalari faoliyati, inson salohiyatini shakllantirish, inson kapitalini to'plash va rivojlantirishni o'z ichiga olgan ijtimoiy munosabatlar o'rtasida zaruriy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston hududlarida bandlik darajasi³⁴

Hududlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Resp.	67,1	67,7	68,2	68,7	69,2	67,4	68,1	66,0	67,0	67,2
Qoraqalpog'iston Resp.	57,7	57,9	58,1	58,1	58,3	62,9	62,9	62,0	61,1	61,6
Andijon	69,9	70,8	71,5	72,3	73,0	69,6	70,1	66,5	68,2	69,5
Buxoro	74,4	74,0	73,4	72,9	72,5	70,7	69,3	68,3	67,2	67,2
Jizzax	56,5	57,3	58,1	59,1	60,0	61,6	67,1	66,2	67,5	66,2
Qashqadaryo	61,8	62,5	63,3	64,3	65,4	64,8	63,9	60,9	62,2	61,9
Navoiy	74,1	73,6	73,2	72,8	72,4	69,2	69,5	66,8	68,3	67,7
Namangan	58,1	59,3	60,5	61,9	63,4	63,8	66,4	65,0	65,5	64,8
Samarqand	65,4	66,5	67,6	68,7	69,7	66,3	65,3	63,2	63,7	64,7
Surxondaryo	62,7	63,4	64,3	65,4	66,6	65,2	67,0	63,9	64,5	64,2
Sirdaryo	72,5	72,9	72,2	71,7	71,1	70,5	68,9	64,8	64,5	64,0
Toshkent	74,0	75,1	75,3	75,4	75,2	71,4	71,4	68,2	72,4	71,0
Farg'ona	68,3	68,8	69,1	69,6	69,9	66,0	67,5	65,1	66,2	67,1
Xorazm	64,3	65,0	65,6	66,3	66,9	64,6	66,1	63,7	64,0	64,7
Toshkent sh.	80,7	80,9	81,1	81,0	80,8	77,5	80,1	81,7	81,3	82,5

³⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

Statistik ma'lumotlar bandlikni tahlil qilishda katta rol o'ynaydi, ular mehnat munosabatlarining iqtisodiy tarkibiy qismi va ta'lim muassasalari faoliyati, inson salohiyatini shakllantirish, inson kapitalini to'plash va rivojlantirishni o'z ichiga olgan ijtimoiy munosabatlar o'rtasida zaruriy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

Kerakli ma'lumotlarni ob'ektiv tarzda taqdim qilish imkonini beruvchi manbalarga ehtiyoj katta bo'ladi. Bunday manbalar bazasi statistik hisobning bir qator shakllaridan, masalan, O'zbekiston aholisini ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat.

Shu asosda statistik ma'lumotlar iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi, ro'yxatdan o'tgan va yashirin ishsizlik darajasi, shuningdek ish haqi darajasi, mehnat xarajatlari, ish vaqti va boshqalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar shakllantiriladi.

Hozirgi vaqtda aholi bandligini tahlil qilish amaliyoti umuman ijtimoiy va mehnat sohasi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish, to'plash va qayta ishlash bo'yicha tadqiqotlarning bir nechta turlarini ajratishga imkon beradi: tahlil qilish, ko'rib chiqish, monitoring qilish, shuningdek statistik ma'lumotlarni to'plash.

Bandlik tadqiqotlari doirasida o'rganilayotgan muammolar majmuasi-bu ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha davlat va davlat muassasalarining ijtimoiy siyosatini amalga oshirish samaradorligini mustaqil har tomonlama baholash sifatida mehnat va ijtimoiy auditga talab va taklifning monitoringini ifoda etadi.

Bandlik monitoringi bandlik holatini tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlardan foydalangan holda tizimli tadqiqotlar jarayonini o'zida ifoda etadi. Uning yordamida o'rganilayotgan sohadagi mavjud muammolarga echimlarni ishlab chiqish, tanqidiy vaziyatlarning yuzaga kelishini bashorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimi shakllantiriladi.

Monitoring o'zida ishchi kuchiga talab va taklifni shakllantirishni o'rganish, talab hajmini aniqlashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish jarayonini aks ettiradi.

Aholi bandligi va umuman mehnat bozorini o'rganish va tahlil qilish uchun turli xil usullardan foydalaniladi. Eng samarali usullar sirasiga ijtimoiy tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin. So'nggi yillarda ijtimoiy va mehnat jarayonlarini monitoring qilish eng keng tarqalgan tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ijtimoiy va mehnat jarayonlarini modellashtirishning matematik usuli ham faol rivojlanayotganligini ko'zdan qochirmaslik lozim.

Aholining bandligini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun segmentlash usulidan keng qo'llaniladi, ya'ni mehnat bozori turli belgilar bo'yicha mayda qismlarga bo'linadi, uning yordamida mehnat bozorining turli segmentlarida bandlik darajasi aniqlanadi. Korxonalar va tashkilotlar xodimlarni ish bilan ta'minlash borasida zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bilan shug'ullanadilar va ishchi kuchining iste'molchisi hisoblanadilar, bo'sh ish o'rinlarini izlovchilar esa, o'z navbatida bandlik xizmatlarining iste'molchilari bo'lib hisoblanadilar. Bandlik segmen-tatsiyasi korxonalar yoki tashkilotga mehnat bozorida raqobatchilarga nisbatan o'z pozitsiyasiga ob'ektiv baho berishga, raqobatdosh ustunliklarini oshirish uchun hududlar va bozorlarni aniqlash uchun ular egallagan joyni aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot ishida keng qo'llaniluvchi mehnat resurslari balansi yordamida mehnat salohiyatiga eng ob'ektiv baho berish mumkin. Bu mehnat potentsialidan foydalanish bo'yicha ishonchli ma'lumot manbai bo'lib, shu munosabat bilan mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mehnat xarajatlarini xalq xo'jaligi tarmoqlari va mintaqalar o'rtasida taqsimlashning mutanosibligi, mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori muhim o'rin tutadi (Qaror, 2022). Mazkur qarorga ko'ra, har bitta mahallada yoshlar etakchisi lavozimi joriy etilib, yoshlar etakchisiga quyidagi vazifalar yuklatildi:


"Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portali" elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish va shu kabilar.



1-rasm. O'zbekiston aholisi tarkibida 10-34 yoshlilarning ulushi, %³⁵

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida bandlikni rivojlantirish muammolarini hal qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun mehnat sohasidagi innovatsion rivojlanish, dinamika va munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi yakka tartibdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy mehnat bozori faoliyati samaradorligini oshirish va ishsizlikning o'sishi muammolarini hal qilish nuqtai nazaridan yoshlar bandligini ta'minlash alohida e'tibor talab qiladi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash haqida so'z borganda, yoshlar - bu muayyan yosh chegaralari, jamiyatdagi ma'lum mavqei va ijtimoiy mas'uliyat darajasiga ega bo'lgan alohida yosh guruhlar¹i sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlar oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, 14 yoshga to'lgan ammo 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar (yosh fuqarolar) sifatida e'tirof etiladi. Tahlillarimiz mamlakat umumiy aholisi tarkibida 10-34 yoshlilar ulushi kamayib borish tendentsiyasiga egaligini ko'rsatmoqda (1-rasm). Bunday holat bir tomondan rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan demografik vaziyat bilan tavsiflanadi, shunga qaramasdan O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning salmog'i yetarlicha yuqori ekanligi yoshlarning bandligi, ularning inson kapitalini boyitish masalalariga katta e'tibor qaratishni talab qiladi.

Bugungi kunda dunyoda 15-24 yoshdagilar soni 1,2 milliardni yoki dunyo aholisining 16 foizini tashkil qiladi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, kelgusi o'n yil ichida hozirda ishsiz bo'lgan 73 million va har yili birinchi marta mehnat bozoriga kirib kelayotgan 40 million yigit-qizlar uchun kamida 475 million yangi ish o'rinlari yaratish uchun zarur bo'ladi. XMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlantirish hujjatlarida kasbiy tayyorgarlik va yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida yoshlarni ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom, fidoyi insonlar etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbiy bandligini ta'minlash, rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamlilarni amalga oshirmoqda.


Mamlakatimizda bandlik muammosini hal qilish bilan ko'plab davlat idoralari, tegishli vazirlik va bandlik xizmati shug'ullanadi. Ta'lim muassasalarini tugatgach, ish topishda qiynalayotgan yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar doimo O'zbekiston davlat siyosatining diqqat markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamlilarni

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

islohotlar amalga oshirilmogda, jamiyatdagi dolzarb muammolarni bartaraf etish bo'yicha ishlar olib borilmogda, yoshlarning barkamol rivojlanishi va ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratilmogda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ishsiz yoshlarning qariyb 20 foizi o'z biznesini boshlash uchun noyob qobiliyatlarga ega, ammo ma'lum holatlar tufayli atigi 5 foizi bunga qaror qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish talab etiladi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish ishsizlikka qarshi kurashning kuchli vositasi bo'lib, aholining o'zini o'zi band qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi va ish o'rinlarini ko'paytirish uchun sharoit yaratadi.

Yoshlar bandligini ta'minlash dasturlari doirasida Respublika bo'yicha jami 273283 nafar yoshlarning bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 154638 nafar yoshlarning bandligini ta'minlashga erishilgan. Bunda 97386 nafar yoshlar doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlangan bo'lsa, 41618 nafar yoshlar kasb-hunarga o'qitish dasturlari bilan qamrab olingan, 26826 nafar yoshlarga jami 8538 ga. er maydoni ajratilgan bo'lsa, 30501 nafar yoshlarning bandligini ta'minlash borasida 667 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirilgan. Yoshlar bandligini ta'minlash borasida Jizzax (37%), Qashqadaryo (40%), Navoiy (48%), Surxondaryo (53%), Toshkent (41%), Xorazm (40%) viloyatlari Respublika ko'rsatkichidan orqada ekanliklarini ta'kidlash lozim.



2-rasm. Respublika hududlarida yoshlar bandligini ta'minlash dasturining ijrosi, %³⁶

Zamonaviy yoshlar uchun o'z kasbiy faoliyatida nafaqat o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amalga oshirish, balki shaxsiy o'sish va o'zini namoyon qilishga erisha olish ham muhimdir, bu esa yoshlarni nafaqat ta'lim jarayonida muayyan ko'nikmalarni egallashga, balki o'z ustida ishlashga ham undaydi. Afsuski, mutaxassislik bo'yicha haqiqiy ish bilan ta'minlash masalasining e'tiborsiz qoldirilishi odatiy hodisaga aylandi, shu bilan bir qatorda yoshlar boshqa sohalarda ish izlashga majbur bo'lmoqdalar, ish izlab topishda nobozor usullarga murojaat qilmoqdalar. Yoshlar uchun oliy ma'lumot olish tobora ko'proq o'zini namoyon qilish va o'zini anglash, qobiliyatlarini rivojlantirish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bu aynan insonning yoshlik davrida amalga oshgani holda, yetarlicha bo'lmagan ijtimoiylashuv darajasi va murakkab hayotiy majburiyatlarning yetishmasligi bilan bog'liq sanaladi.

Yoshlar mehnat sohasidagi harakatlarni qo'llab-quvvatlash va tartibga solishni talab qiladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadir. Kasbiy yo'nalish va amaliyotning etishmasligi ertangi kunda yoshlarning o'z salohiyatini rivojlantirishga sarmoya kiritish va nufuzli ish, lavozim va maoshga ega bo'lish o'rniga, bugun xizmat ko'rsatish sohasida "tezkor" maosh evaziga ishlashga majbur qiladi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashning asosiy muammolaridan biri bu mehnatga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning yo'qligida aks etadi, ya'ni bitiruvchilarni tayyorlash sifati ish beruvchining talablariga javob bermaydi. Kadrlarga bo'lgan talabni shakllantiradigan ish beruvchilar va taklifni shakllantiradigan ta'lim xizmatlari sohasi o'rtasidagi muvo-zanatni ta'minlash muammosi yoshlar

³⁶ Yoshlar ishlari agentligining ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

o'rtasida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va ushbu kompetentsiyalarning ish beruvchining talablariga muvofiqligiga erishishda ko'zga tashlanadi.

Ta'lim olayotgan yoshlar muvaffaqiyatli ishga joylashish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liqligi e'tirof etiladi, shu bilan birga ta'lim sifatining yoshlarning ish bilan ta'minlashdagi muvaffaqiyatlariga bog'liqligi alohida isbot talab qilmaydi. Shu nuqtai nazardan, ish beruvchilarning talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hududda inson kapitalining to'planishi rivojlanish va o'zini o'zi anglash uchun yaxshi sharoitlar bilan chambarchas bog'liq, masalan, ishbilarmonlik muhiti uchun qulay muhit yaratish, ijodiy sinf va ijodkorlikni rivojlantirish uchun bunday sharoitlar mintaqaning jozibadorligini oshiradi. Hududga inson kapitalini jalb qilish va uni mustahkamlash hudud iqtisodiyotining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Inson kapitalini shakllantirish va uning sifatini ta'minlashda ta'lim muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu borada quyidagilarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi:

- o'qitishning zamonaviy usul va vositalaridan foydalangan holda, aholiga sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

- o'quvchilarning qobiliyatlarini erta aniqlash, ularning ijtimoiy-psixologik holati, oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida bo'yicha pedagogik va psixologik xizmatlar ko'rsatish;

- ta'lim tizimining uzviyligi tamoyiliga jiddiy rioya qilish;

- ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni va ahamiyatini oshirish;

- mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda, ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimini yo'lga qo'yish.

Inson kapitali samaradorligini oshirishning yana bir muhim yo'nalishi sifatida ta'limning turli darajalari uzluksizligi, qo'shimcha kasb-hunar ta'limini rivojlantirish orqali aholining doimiy kasbiy o'sishi uchun sharoit yaratishni keltirib o'tishimiz lozim.

Ushbu yo'nalish doirasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- bitiruvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish;

- bandlik borasida ish beruvchi va ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- o'quvchi va talabalarga nisbatan mijoz sifatida munosabatda bo'lish;

- mehnat bozoridashi o'zgarishlarni doimiy kuzatib borish va kuzatuv natijalari asosida tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- iqtidorli va iste'dodli yoshlarni saralab olish va rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- innovatsion faol ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.

Ta'lim jarayonini boshqaruv tizimini takomillashtirish ham bu boradagi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada ma'muriy boshqaruv usullaridan bosqichma-bosqich institutsional va iqtisodiy boshqaruv usullariga o'tish qo'llab-quvvatlanishi talab qilinadi.

Ta'lim jarayoni va uning sifatini baholash borasida ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, ta'lim siyosatini amalga oshirishda jarayon ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini qo'llab-quvvatlash, bu borada ularning mas'uliyatini kuchaytirish dolzarb-dir.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Literature:

Abdurahmonov K.X. (2019) *Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalendar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, -T.: -544 b.*

Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). *INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 5-14.* Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/39>

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158 sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/6600413*

Nasimov D.A. (2011) *Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Samarqand.*

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori*

Xolmo'minov Sh.R. (2014) Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (Monografiya). – T.: Fan va texnologiya.

Xolmuxamedov M.M. (2011) Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va uni takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand.

Xomitov K.Z. (2012) O'zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O'zR FA Iqtisodiyot instituti.

Xudoyberdiev Z.Ya. (2016) Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: ILMZIYO.

Абдувоҳидов А. А. и др. (2022) ҲУДУДЛАРДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ КРЕДИТЛАШ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //ВАРҚАРОРЛИК ВА ҲЕТАКСИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – Т. 2. – №. 5. – С. 46-52.